

Toshkent manzaralari: kecha va bugun

Dunyoda shunday buyuk shaharlar borki, ular nafaqt qadimiy tarixi, murakkab va shonli rivojlanish yo'li, balki asrlar, ming yillar davomida bajarib kelgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy vazifasi bilan ham, avvalo, o'z xalqi, qolaversa, butun bashariyat hayotida har tomonlama chuqur iz qoldirgan va shuningdek, milliy iftixon va taraqqiyot ramziga aylangan. Hech shubhasiz, ularning orasida azim Toshkent shahrining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Shu munosabat bilan zamonaviy Toshkentning me'morchiligi, tasviriy va amaliy san'ati, ularning kecha va bugunini ko'rsatib berish maqsadida FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyining filiali Toshkent muzeyida "Toshkent manzaralari: kecha va bugun" nomli ko'rgazma tashkil etildi.



Ko'rgazma O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi va O'zbekiston Kinofotofono hujatlari milliy arxivi bilan hamkorlikda o'tkazildi.

Ko'rgazmada Toshkentning mahobatli binolari, zamonaviy va tarixiy katta-kichik ko'chalari, odamlari, mehmonlarining madaniy hordig'i, Toshkentning XX asrdagi manzaralari tasvirlangan tarixiy foto hujatlar namoyish etildi.

